

Haftalik savdolar natijalar

08-12.06.2020

Yangiliklar daydjesti

O'tgan hafta yangiliklari

- Jahon banki O'zbekiston uchun YaIM o'sishini bashorat qilmoqda: ilgari e'lon qilingan 1,6% o'rniga 1,5%
- Davlat byudjeti xarajatlari 106,3 trln so'mgacha o'sdi (ilgari - 100,8 trln so'm)
- Markaziy bank qayta moliyalash stavkasini 15% darajada qoldirdi
- KBRA Prezident Qarori loyihasini muhokama qilish uchun taqdim etdi
- "Kvars" AJga bag'ishlangan emitent kuni onlayn formatda o'tkazildi
- 3 ta aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlarini «Toshkent» RFB birja kotirovkalash varog'iga kiritildi
- "O'zbekiston ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJ tashkil etilishi
- 30 iyun kuni "Toshkent" RFB aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi bo'lib o'tadi
- "Universalbank" ATB qimmatli qog'ozlari bilan Nego Board muzokaralar auktsion qismida navbatdagi bitim - 300,000 oddiy aksiyalar (Umumiy miqdoridan 1%)

Birja kotirovkalash varog'iga kiritilgan kompaniyalarning qimmatli qog'ozlari

"P" kategoriyasiga:

- **"Minora qurish ekspeditsiyasi" AJ**

2019-yil 9-iyuldagi №PQ-4388 Prezident Qarori asosida sotish bo'yicha davlat ulushi: 37.09% (to'liq paket bitta lotda)

- **"4-sonli montaj boshqarmasi" AJ**

2019-yil 27-martdagi №PQ-4249 Prezident Qarori asosida sotish bo'yicha davlat ulushi: 56.17% (to'liq paket bitta lotda)

"C" kategoriyasiga:

- **"Dori-Darmon" AK**

"Toshkent" RFBdagi savdolar natijalari

Statistika 08-12.06.2020 "Toshkent" RFB

Savdo hajmi*

UZS 1 148 714 922

▲ +12%**

Bitimlar soni*

693

▼ -8,7%

Qimmatli qog'ozlar soni

2 994 680

Emitentlar soni

30

▲ +2

Bitimlar soni bo'yicha Top-3

HMKB 130 (20,54%)

KVTS 105 (16,59%)

QZSM 64 (9,95%)

Savdo hajmi bo'yicha Top-3

UNVB 502,5 mln so'm (43,74%)

UZMK 301,4 mln so'm (26,24%)

QZSM 119,4 mln so'm (10,40%)

Ikkinchi haftada ketma-ket eng katta bitimlar "Hamkorbank" ATB ning oddiy aksiyalari /HMKB / bilan qayd etildi. "Kvarts" AJ ning oddiy aksiyalari /KVTS / ikkinchi haftada 2-o'ringa joylashtirilgan. Iyun oyining ikkinchi savdo haftasi yakunlariga ko'ra quyidagi aksiyalar narxlarining o'zgarishi:

– HMKB ▲ +7,96%

– KVTS ▼ -3,30%

– QZSM ▲ +2,80%


*Ma'lumotlar oldingi savdo haftasiga taqqoslangan

**Nego Boardda bitimlar bundan mustasno

Prezident Qarori loyihasi

10-iyun kuni Kapital bozorini rivojlantirish agentligi (KBRA) Prezident Qarori "Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish sohasidagi faoliyatini takomillashtirish va aktsiyalarni ommaviy joylashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" loyihasini muhokama qilish uchun taqdim etdi.

Ushbu loyiha doirasida, jumladan, tajriba sifatida IPO yoki SPOning maxsus shartlari bilan quyidagi aktsiyadorlik jamiyatlarining aktsiyalari o'tkazilishi taklif etiladi:

Kompaniya	IPO/SPO (%)
 «Qizilqumsement» AJ	10,9
 «O'zRTXB» AJ	12
 AO «Andijon Biokimyo zavodi»	15
 AJ «UZBAT A.O.» QK	2,6
 «O'ztemiryo'konteyner» AJ	27,1

Emitent kuni | "Kvarts" AJ

"Kvars" AJga bag'ishlangan emitent kuni birinchi marta onlayn formatda o'tkazildi.

"Toshkent" Respublika fond birjasi va "Freedom Finance" MChJ XK, O'zbekiston Respublikasi kapital bozorini rivojlantirish agentligining tavsiyalariga binoan, O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ko'magida tashkil etildi.


Tadbirda "Toshkent" RFB, "Freedom Finance" MChJ XK, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Evrosiyo fond birjalari federatsiyasi (FEAS) va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdilar.

Konferentsiya mobaynida zavodning bugungi holati va uning rivojlanish istiqbollari haqida ma'lumot berildi, ma'ruzachilar fond bozoridagi so'nggi voqealarni muhokama qilishdi va investorlarning savollariga javob berishdi.


Sohalar

Sohalar bo'yicha bitimlarni natijalari

Bitimlar soni




Savdo hajmi



Haftalik o'sish bo'yicha etakchilar

So'nggi savdo haftasida eng yuqori narxlarni ko'rsatgan qimmatli qog'ozlar.



Haftalik savdolar natijalar

Ushbu material faqat ma'lumot berish uchun taqdim etiladi va qimmatli qog'ozlar bozorida bitimlar - ularni sotib olish yoki sotish uchun tavsiya qilmaydi.



info@uzse.uz

Toshkent,
Mirzo-Ulug'bek tumani,
Mustaqillik ko'chasi, 107

+998 71 267-18-71

©2020
www.uzse.uz